



DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.19610203>

Bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy-axloqiy begonalashuvini oldini olishning pedagogik tizimini takomillashtirish

Mexmonaliyev Shodibek Navfal o'g'li –

Farg'ona davlat universiteti,

“Pedagogika” kafedrasida katta o'qituvchisi

E-mail: mexmonaliyevshodibek93@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0000-0003-0414-3730>

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy-axloqiy begonalashuvi muammosi kompleks pedagogik hodisa sifatida tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – ushbu jarayonni oldini olishga qaratilgan pedagogik tizimni ilmiy asosda takomillashtirishdan iborat. Ishda nazariy va empirik metodlar asosida pedagogik model ishlab chiqilib, uning samaradorligi tajriba-sinov orqali asoslab berilgan. Natijalar talabalarda ma'naviy qadriyatlarga ongli munosabat shakllanganini, ijtimoiy faollik oshganini hamda begonalashuv ko'rsatkichlari kamayganini ko'rsatadi.*

***Kalit so'zlar:** ma'naviy-axloqiy tarbiya, begonalashuv, pedagogik tizim, bo'lajak o'qituvchi, qadriyatlar, refleksiya, ijtimoiy faollik.*

Совершенствование педагогической системы профилактики духовно-нравственного отчуждения будущих учителей

***Аннотация.** В данной статье духовно-нравственное отчуждение будущих учителей рассматривается как комплексное педагогическое явление. Основная цель исследования заключается в научном обосновании и совершенствовании педагогической системы, направленной на предотвращение данного процесса. В работе на основе теоретических и эмпирических методов разработана педагогическая модель и экспериментально доказана её эффективность. Полученные результаты свидетельствуют о формировании у студентов осознанного отношения к духовным ценностям, повышении социальной*

активности и снижении показателей отчуждения.

Ключевые слова: *духовно-нравственное воспитание, отчуждение, педагогическая система, будущий учитель, ценности, рефлексия, социальная активность.*

Improving the pedagogical system for preventing the spiritual and moral alienation of future teachers

Annotation. *This article examines the spiritual and moral alienation of future teachers as a complex pedagogical phenomenon. The main objective of the study is to scientifically substantiate and improve a pedagogical system aimed at preventing this process. Based on theoretical and empirical methods, a pedagogical model was developed and its effectiveness was experimentally verified. The results indicate the formation of students' conscious attitudes toward spiritual values, an increase in social activity, and a decrease in indicators of alienation.*

Keywords: *spiritual and moral education, alienation, pedagogical system, future teacher, values, reflection, social activity.*

KIRISH

Zamonaviy globallashtirish jarayonlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivoji hamda madaniyatlararo integratsiyaning kuchayishi yoshlar ongida sezilarli o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, qadriyatlar tizimidagi transformatsiyalar, individualizmning ortishi, ommaviy madaniyat ta'sirining kuchayishi ma'naviy-axloqiy muammolarni keskinlashtirmoqda. Shu nuqtai nazardan, ma'naviy-axloqiy begonalashuv fenomeni pedagogika va psixologiya fanlarida dolzarb ilmiy muammo sifatida namoyon bo'lmoqda.

Ma'naviy-axloqiy begonalashuv – bu shaxsning jamiyat tomonidan qabul qilingan axloqiy me'yorlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlardan uzoqlashuvi, ijtimoiy mas'uliyatning susayishi bilan xarakterlanadigan murakkab jarayondir. Ushbu holat, ayniqsa, bo'lajak o'qituvchilar orasida kuzatilganda, uning salbiy oqibatlarini keng ko'lamlilik bo'lishi mumkin. Chunki o'qituvchi shaxsiyati jamiyatning ma'naviy taraqqiyotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash tizimida ularning kasbiy kompetensiyalari bilan bir qatorda ma'naviy-axloqiy sifatlarini shakllantirish ustuvor vazifa hisoblanadi. Biroq amaliyot shuni ko'rsatadiki, ta'lim jarayonida ma'naviy tarbiya ko'pincha tizimsiz va fragmentar tarzda amalga oshiriladi. Bu esa kutilgan natijalarning to'liq ta'minlanmasligiga olib keladi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi – bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy-axloqiy begonalashuvini oldini olishga qaratilgan pedagogik tizimni ishlab chiqish va uni takomillashtirishdan iborat. Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

- ma'naviy-axloqiy begonalashuv tushunchasining mohiyatini aniqlashtirish;
- uning yuzaga kelish omillarini tahlil qilish;
- pedagogik tizim modelini ishlab chiqish;
- tajriba-sinov orqali tizim samaradorligini baholash.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy-axloqiy begonalashuvi muammosi zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlarida dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri sifatida keng o'rganilmoqda. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mazkur hodisa shaxsning ijtimoiylashuv jarayonidagi uzilishlar, qadriyatlar tizimidagi nomutanosiblik hamda tarbiya jarayonining yetarli darajada tizimli tashkil etilmaganligi bilan bog'liq holda yuzaga keladi. I.Karimov ma'naviyatni jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida talqin qilib, shaxs kamolotida ma'naviy-axloqiy tarbiyaning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi. Sh.M. Mirziyoyev esa yangi davr ta'lim siyosatida yoshlarning ma'naviy barkamolligini ta'minlashni ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilaydi. Bu yondashuvlar bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida ma'naviy komponentni kuchaytirish zarurligini asoslaydi.

Pedagogika sohasidagi tadqiqotlarda (To'xtaxodjaeva, Ochilov, Jo'rayev) tarbiya jarayonining tizimliliigi, uzluksizligi va maqsadga yo'naltirilganligi asosiy tamoyillar sifatida ko'rsatib o'tilgan. Ushbu ilmiy qarashlarga ko'ra, ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish faqat alohida mashg'ulotlar orqali emas, balki butun ta'lim jarayoniga integratsiyalashgan holda amalga oshirilishi lozim. Psixologik yondashuvlarda (Nishonova, G'oziev) shaxs rivojida refleksiya, o'z-o'zini anglash va ijtimoiy tajriba muhim omillar sifatida e'tirof etiladi. Bu esa ma'naviy begonalashuvni bartaraf etishda refleksiv faoliyatni rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

Xorijiy tadqiqotchilar ham ushbu muammoni turli jihatlarida o'rganishgan. Jumladan, F.Korthagen o'qituvchining professional rivojlanishida refleksiyaning ahamiyatini asoslab bergan bo'lsa, A.Hargreaves zamonaviy jamiyatda o'qituvchining ijtimoiy va madaniy rolining o'zgarishini tahlil qiladi. G.Biesta ta'limni faqat natijaga yo'naltirilgan jarayon sifatida emas, balki shaxsni ijtimoiy va ma'naviy shakllantirish vositasi sifatida talqin etadi. N.Noddings esa axloqiy tarbiyada "g'amxo'rlik etikasi" konsepsiyasini ilgari surib, shaxslararo munosabatlarning ahamiyatini ta'kidlaydi. Yuqoridagi ilmiy qarashlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy-axloqiy begonalashuvini oldini olish uchun tizimli, integrativ va shaxsga yo'naltirilgan pedagogik yondashuv zarur. Shu asosda mazkur tadqiqotda pedagogik tizim modeli ishlab chiqildi.

Mazkur tadqiqotda bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy-axloqiy begonalashuvini oldini olishga qaratilgan pedagogik tizimni ishlab chiqish va uning samaradorligini aniqlash maqsadida kompleks yondashuv asosida nazariy va empirik metodlardan foydalanildi.

Tadqiqotning nazariy bosqichida pedagogik, psixologik va falsafiy adabiyotlar tahlil qilinib, muammoning ilmiy-nazariy asoslari aniqlashtirildi. Ushbu bosqichda tahlil, taqqoslash, umumlashtirish va tizimlashtirish metodlari qo'llanilib, ma'naviy-axloqiy begonalashuv tushunchasining mohiyati, uning tarkibiy komponentlari va yuzaga kelish omillari aniqlab olindi. Empirik tadqiqot jarayonida esa kuzatish, so'rovnoma, test va pedagogik tajriba-sinov metodlari qo'llanildi. Kuzatish metodi orqali talabalarning ijtimoiy faolligi, jamoaviy faoliyatdagi ishtiroki hamda xulq-atvoridagi o'zgarishlar o'rganildi. So'rovnoma orqali ularning ma'naviy qadriyatlarga munosabati, ijtimoiy pozitsiyasi va shaxsiy qarashlari aniqlashtirildi. Test metodlari yordamida esa talabalarning axloqiy rivojlanish darajasi baholandi.

Tadqiqotning asosiy qismi pedagogik tajriba-sinov ishlari orqali amalga oshirildi. Tajriba jarayoni uch bosqichda tashkil etildi: diagnostik bosqich (mavjud holatni aniqlash), shakllantiruvchi bosqich (taklif etilgan pedagogik tizimni joriy etish) va nazorat bosqichi (natijalarni baholash). Tadqiqot obyekti sifatida oliy ta'lim muassasalarining pedagogika yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar jalb etildi. Ishlab chiqilgan pedagogik tizim quyidagi o'zaro bog'liq komponentlardan tashkil topdi: maqsadli komponent (ma'naviy barkamol shaxsni shakllantirish), mazmuniy komponent (qadriyatlar tizimi), jarayonli komponent

(interfaol metodlar asosida ta'limni tashkil etish) va natijaviy komponent (talabalarda shakllangan sifatlarni baholash). Tadqiqot natijalari tahlil va umumlashtirish metodlari asosida qayta ishlanib, pedagogik tizimning samaradorligi ilmiy jihatdan asoslab berildi.

NATIJARLAR VA MUHOKAMA

O'tkazilgan tajriba-sinov ishlari bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy-axloqiy begonalashuvini oldini olishga qaratilgan ishlab chiqilgan pedagogik tizimning samaradorligini aniqlash imkonini berdi. Dastlabki diagnostik bosqich natijalari talabalarda ma'naviy qadriyatlarga nisbatan munosabatning yetarli darajada shakllanmaganligi, ijtimoiy faollikning pastligi hamda ayrim begonalashuv belgilarining (loqaydlik, befarqlik, individualistik qarashlar) mavjudligini ko'rsatdi. Bu esa muammoning dolzarbligini yana bir bor tasdiqladi.

Shakllantiruvchi bosqichda taklif etilgan pedagogik tizim asosida maxsus dastur joriy etildi. Mazkur jarayonda interfaol metodlar – munozara, treninglar, rolli o'yinlar, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish hamda refleksiv mashg'ulotlardan keng foydalanildi. Talabalar ijtimoiy loyihalarda, jamoaviy faoliyatlarda hamda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda faol ishtirok etishga jalb qilindi. Bu esa ularning nafaqat nazariy bilimlarini, balki amaliy ko'nikmalarini ham rivojlantirishga xizmat qildi.

Nazorat bosqichi natijalari tajriba guruhida sezilarli ijobiy o'zgarishlar yuz berganini ko'rsatdi. Xususan, talabalarining ma'naviy qadriyatlarga ongli munosabati shakllandi, ijtimoiy faolligi oshdi, jamoa bilan ishlash ko'nikmalari rivojlandi hamda axloqiy qaror qabul qilish qobiliyati mustahkamlandi. Eng muhimi, begonalashuv ko'rsatkichlari sezilarli darajada kamaydi. Nazorat guruhi bilan taqqoslanganda, tajriba guruhidagi natijalar yuqori samaradorlikni namoyon etdi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonini tizimli va maqsadga yo'naltirilgan holda tashkil etish begonalashuvni kamaytirishda muhim omil hisoblanadi. Xususan, refleksiya mexanizmlarini rivojlantirish, talabalarining o'z-o'zini anglash darajasini oshirish va ularni ijtimoiy faoliyatga jalb etish ijobiy natijalarga olib keladi. Ma'naviy-axloqiy begonalashuvni oldini olish faqat alohida tarbiyaviy tadbirlar bilan cheklanmasligi kerak. Aksincha, u butun ta'lim jarayoniga integratsiyalashgan holda, ya'ni o'quv mashg'ulotlari, tarbiyaviy ishlar va ijtimoiy faoliyatlar uyg'unligida amalga oshirilishi lozim. Bu esa talabalarda barqaror ma'naviy pozitsiyani shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, pedagog shaxsining namunaliligi, ya'ni uning ma'naviy-axloqiy qiyofasi ham talabalarga bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchining shaxsiy namunasi, muloqot madaniyati va qadriyatlarga sodiqligi talabalarining xulq-atvori va dunyoqarashida muhim o'zgarishlarni yuzaga keltiradi. Olib borilgan tadqiqot natijalari bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy-axloqiy begonalashuvini oldini olishda kompleks, tizimli va innovatsion yondashuvlar yuqori samaradorlikka ega ekanligini tasdiqladi. Bu esa mazkur yo'nalishda olib boriladigan keyingi ilmiy izlanishlar va amaliy faoliyat uchun muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA

Bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy-axloqiy begonalashuvi zamonaviy ta'lim tizimida dolzarb va murakkab pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. Mazkur tadqiqot natijalari ushbu jarayonning ijtimoiy, psixologik va pedagogik omillar bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatdi. Ma'naviy-axloqiy begonalashuvni oldini olishda tizimli, maqsadga yo'naltirilgan va integrativ pedagogik yondashuv muhim ahamiyatga ega. Ishlab chiqilgan pedagogik tizim modeli (maqsadli, mazmuniy, jarayonli va natijaviy komponentlar asosida) talabalarda ma'naviy qadriyatlarga ongli munosabatni shakllantirish, ularning ijtimoiy faolligini oshirish hamda axloqiy qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali ekanligi tajriba-sinov natijalari orqali isbotlandi. Refleksiv faoliyatni rivojlantirish, interfaol metodlardan

foydalanish, talabalarning ijtimoiy hayotdagi ishtirokini kengaytirish hamda pedagog shaxsining ijobiy namunasi ma'naviy-axloqiy tarbiyaning muhim omillari hisoblanadi. Shu bilan birga, tarbiya jarayonining uzluksizligi va ta'lim mazmuniga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarni integratsiya qilish muhim pedagogik shart sifatida namoyon bo'ldi.

Taklif etilgan pedagogik tizimni amaliyotga joriy etish orqali bo'lajak o'qituvchilarda ma'naviy barkamollik, ijtimoiy mas'uliyat va kasbiy yetuklikni shakllantirish imkoniyati kengayadi. Bu esa o'z navbatida ta'lim sifati oshishiga va jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
3. To'xtaxodjaeva M.X. Pedagogika nazariyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2010.
4. Ochilov M. Pedagogika. – Toshkent: O'qituvchi, 2012.
5. Nishonova Z.T. Shaxs kamoloti psixologiyasi. – Toshkent: Fan, 2006.
6. G'oziev E.G'. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O'zbekiston, 2010.
7. Raximov B.X. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan, 2015.
8. Jo'rayev R.X. Tarbiya nazariyasi. – Toshkent: Fan, 2013.
9. Yuldashev J.G'. Pedagogik innovatsiyalar. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2016.
10. Qodirov B.R. Ma'naviyat asoslari. – Toshkent: O'zbekiston, 2012.
11. Korthagen F. Teacher Reflection and Professional Development // Teaching and Teacher Education. – 2004. – Vol. 20. – P. 77–89.
12. Hargreaves A. Teaching in the Knowledge Society // Education Journal. – 2003.
13. Biesta G. Good Education in an Age of Measurement. – London: Routledge, 2010.
14. Noddings N. Caring: A Relational Approach to Ethics and Moral Education. – Berkeley: University of California Press, 2013.